

## QADIMGI SHARQ FALSAFASI.

**Tursunboyev Doniyor Mansurjon o'gli. TDSI talabasi.**

**Ilmiy raxbar:** *Umirzakova Nargiza Akmalovna*

*Toshkent davlat stomatologiya instituti,*

*Toshkent, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** Tarixni bilish, undan to'g'ri va xolis xulosalar chiqara olish inson ma'naviy kamoloti uchun nihoyatda muhim sanaladi. Tarix — buyuk muallim, o'tmishdan saboq beradigan tarbiyachidir. Gap eng qadimgi davr falsafasi haqida borar ekan, bu haqiqat yanada katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola qadimgi Sharq falsafasi haqida boradi.

**Kalit so'zlar:** Sharq falsafasi, Xitoy va hindiston falsafasi, Bobil, Misr, yoga, vaysheshika, estetika.

Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda, ko'pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o'tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizatsiyalaridan biri bo'lgan Shumer davrlarini, qadimgi Xitoy va Hindiston diyorida yashagan xalqlarning ma'naviy merosini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimining o'ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jarayonlarning muayyan tarzda namoyon bolishi bilan tavsiflanadi.

Qadimgi Misr va Bobil falsafasi. Qadimgi Misr va Bobilda shakllangan falsafaning eng asosiy xususiyati shundan iborat ediki, ularda, bir tomondan, ilohiy kuchlarga ishonch, ularning tabiat va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirini mutloqlashtirish xususiyati ustuvor bolgan bolsa, ikkinchi tomondan, afsona va rivoyatlar tarzida bolsa-da, dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan.

Qadimgi hind falsafasi. Qadimgi hind falsafiy maktablar ikki guruhga bolinadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarni astika va nastika deb ataydi. Vedanta, sankhya, yoga, vaysheshika, n'yaya va mimansa — astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablardir. Ushbu maktablarning tarafdorlari «Veda»ning muqaddasligini tan olib, birdanbir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. Chorvaka-lokayata, buddizm va jaynizm — nastika guruhiga kiradi. Chorvaka-lokayata tarafdorlari materialistik ta'limotni ilgari surganlari uchun «Veda»ning muqaddasligini tan olishmaydi hamda olam ilohiy kuch tomonidan yaratilmagan, «Veda» haqiqiy bilim bermaydi, deb ta'kidlashadi. Buddizm va Jaynizm diniy-falsafiy maktablar bolishiga qaramay, ular ham «Veda»ning muqaddasligini tan olmagan. Sankhya qadimgi Hindistondagi dualistik falsafiy maktab bolib, olam asosida moddiy unsur (prakriti) modda va ruh (purusha) yotadi, deb hisoblaydi. Bu yo'nalishga, asosan, olamdagi barcha narsalar ikki unurning turli teng miqdorda (proporsiyada) birikishidan yuzaga keladi, olam sababiyat orqali rivojlanadi, olamda uchta sabab mavjud,



deyiladi. Ular quyidagilardir: moddiy sabab, yaratuvchi sabab, aloqador bolmagan sabab. Bu falsafiy maktab haqida buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» asarida atroflicha fikr yuritgan.

Qadimgi Xitoy falsafasi. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa, urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qoliga olgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bolishini o'ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini olkazgan. Bunday ruhdagi falsafiy g'oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy (551-479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya'ni aforizmlari juda mashhur. Konfutsiy ta'limotida umuminsoniy qadriyatlarning xitoy xalqi turmush tarzida o'ziga xos tarzda namoyon bolishi, bu xalqqa xos ma'naviy mezonlar aks etgan. Bu ta'limot bir necha asrlar davomida ushbu hududda milliy g'oyalar majmuyi, millatning mafkurasi sifatida odamlarning ma'naviy ongi va qiyofasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. U hozirgi Xitoyda ham o'zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan. Konfutsiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi— taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtayi nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi. U, ya'ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib — insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfutsiy ta'limotida insonning hayotdagi ijtimoiy o'rni nihoyatda ulug', u o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi. o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqalariga ham ravo ko'rishi lozim. Konfutsiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g'oyalari takomilida muhim o'rin tutgan. Bu ta'limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko'tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Xulosa qilib aytadigan bōlsak har bir falsafiy qarashda olam olam mano bor. Ularning tub mohiyatini o'rganish biz avlodlarning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

## **. FALSAFA ASOSLARI.**

**1. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti - 2018. 89-109 b.**

**2. Falsafa. Ma'ruzalar matni, T., 2000.**

Мухамедова З.М., Умирзакова Н.А. Феномен медицинских и гуманитарных наук и международный опыт интеграции гуманитарных наук в медицинском образовании.



/Философские проблемы биологии и медицины. Москва. Выпуск №13. Выпуск 13.- М.: ЛЕНАНД, 2019. – 304 с.

Умирзакова Н.А. Таълимни инсонпарварлаштириш контекстида биоэтиканинг онтологик ва гносеологик жиҳатларининг методологик таҳлили: ф.ф.н...дисс. - Тошкент: ЎЗМУ. 2022. - Б.147.

Умирзакова Н.А. Значение изучения биоэтики в формировании профессиональной компетентности у студентов медицинских ВУЗов. Научные исследования XXI века. №5 (7) 2020. Нефтекамск. Россия. 2020. стр. 140- 144.

Умирзакова Н.А. Bioethics as a value system for professional competence of doctors. (The priority research areas in the XXI century). Материалы международной научно-практической конференции 30 сентября 2020 года. (г. Прага. Чехия). Б.148-152.

Умирзакова Н.А. Репродуктив саломатлик ва оила кадрятларининг биоэтикавий жиҳатлари. Монография. –Тошкент: Lesson-press, 2021. - Б.112.

Умирзакова Н.А. Ўзбекистон Республикасида суррогат оналик масаласи: муаммо ва ечимлар // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2019. -№2– Б. 58-61.

Умирзакова Н.А. Медикализация жараёнларининг жамият ҳаётига таъсири – биоэтика муаммоси сифатида // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2020. -№ 1/4. – Б.136-138.

Умирзакова Н.А. Биоэтиканинг пайдо бўлиши, фан сифатида шаклланиши ва ўрганадиган муаммоларининг фалсафий-методологик таҳлили // Фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент, 2020. - №1(8). - Б. 56-69.

Умирзакова Н.А. Жамият ҳаёти ва медицинализация // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2021. -№1. - Б. 118-121.

Умирзакова Н.А. Bioethic culture in Uzbekistan: national and religious aspects of // International engineering journal for research & development. – India, 2021. Vol.6. Issue 2. SJIF: 7.169. E-ISSN. No:2349-0721. – P.1-4. (№23; SJIF, 7.169).

Umirzakova N.A. The Roles of Bioethics in the Formation of Professional Competence of Students of Medical Universities in Uzbekistan // Eubios journal of Asian and international ejaib. Vol. 31(5). July. 2021. – P. 258-260. (№3; SCOPUS);

Умирзакова Н.А. Востребованность биоэтики для гуманизации медицинского образования в Узбекистане // IX Міжнародного симпозиуму з біоетики Здоров'я, медицина та філософія: стратегії виживання. 15-16 квітня. Київ, 2021. - Б. 88-90.

Умирзакова Н.А. Роль биоэтики в формировании ценностной системы врачей // Ўзбекистон Республикаси тиббиёт олий ўқув юртларида таълим дастурларини амалга ошириш тажрибаси: Ўқув-услубий конгресс тўплами. –Тошкент, 2021. –Б.339–342.

Мухамедова З.М., Умирзакова Н.А. Биоэтика. Ўқув кўлланма. – Тошкент: Lesson-press, 2021. - Б.135.



Мухамедова З.М., Умирзакова Н.А. Биоэтик атамаларнинг изохли луфати. – Тошкент: Lesson-press, 2021. - Б.119.

Мухамедова З.М., Умирзакова Н.А. Исторические и современные аспекты мусульманской философско-религиозной и этической традиции в медицине // Фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент, 2019. - №4 (7). - С. 28-51.

Umirzakova N.A, Mukhamedova Z.M. Historical and modern aspects of Islamic philosophical, religious and ethical traditions in medicine in Uzbekistan // Eubios journal of Asian international bioethics. Vol. 30 (1)–New Zealand. 2020. -P.12-20. (№3; SCOPUS).

Umirzakova N.A., Mukhamedova Z.M., Makhmudova A.N. The uzbek model of bioethics: history and modernity // Malim: jurnal Pengajian umum asia Tenggara (sea journal of general studies). – Malayziya

Yuldasheva. L.S. Jon tananing hayotiy kuchi. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES PHILOSOPHY AND CULTURE. 2022. 14. 12.

Yuldasheva. L.S ABU RAYHON BERUNIYNIG ONTOLOGIK QARASHLARI.

Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. 03.02.

Yuldasheva L.S Abdukholik Gijduvani's Teachings On Human Perfection: A Philosophical Analysis.

JOURNAL OF PHARMACEUTICAL NEGATIVE RESULTS. 2022. 12.31.